

BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXLOQIY TARBIYA BERISHNING AHAMIYATI

**Sadirbekova Aqjarqin Marat qizi
Baltabayeva Beksulu Nurjan qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lif
yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiya berishning ahamiyatini ko'rib chiqdik. Axloqiy qadriyatlarning bolalar ongiga singdirilishi, ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta'siri haqida fikr yuritdik. Məktəbda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va bu jarayonda o'qituvchilarning tutgan o'rni haqida to'xtaldik. Shu bilan birga, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, axloqiy tarbiya berish usullariga ham e'tibor qaratdik. Maqolada axloqiy tarbiyaning nafaqat məktəb ichidagi, balki jamiyatdagi umumiy muhitga ko'rsatadigan ta'sirini ham baholadik.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, axloqiy tarbiya, tarbiya jarayoni, o'quvchi shaxsini shakllantirish, o'qituvchi roli, qadriyatlар, tarbiyaviy ishlar, jamiyat va axloq.*

Kirish. Yurtimizda ta'lif tizimi doimiy ravishda rivojlanib, yoshlarni tarbiyalashda yangi yondashuvlar qo'llanilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiya berishning o'rni alohida ahmiyatga ega. Bu yoshda bolalar dunyoqarashini shakllantiradi, to'g'ri axloqiy qadriyatlар asosida o'z xulq-atvorini belgilaydi. O'quvchilarni halollik,adolat, do'stlik, vijdonlilik kabi asosiy axloqiy qadriyatlар bilan tanishtirish, ularni jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib voyaga yetishlariga yordam beradi. Axloqiy tarbiya faqat o'quvchilarning o'zlariga emas, balki jamiyatga ham foyda keltiradi, chunki bu qadriyatlар jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biz, bolajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning vazifasi ham aynan shu axloqiy qadriyatlarni o'quvchilarga yetkazish va ularni hayotga tatbiq etishda yordam berishdan iboratdir. O'qituvchilar faqat bilim beruvchilar emas, balki tarbiyachilardir. Ular bolalar bilan ishslash jarayonida, nafaqat o'qish yoki yozish, balki ularga do'stlik, o'zaro hurmat, halollik va boshqa muhim axloqiy qadriyatlarni ham o'rgatadilar. Shunday qilib, boshlang'ich

sinf o‘qituvchilari nafaqat ilm-fan yo‘lida, balki ma’naviyat va axloqiy tarbiya yo‘lida ham katta mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishlari kerak.

«Ta’lim» bir narsaning haqiqatini batafsil va yaxshilab bildirish ma’nosini anglatadi. «Ta’lim berish», «dars berish » va «o‘rgatish» so‘zlarining ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lib,ma’lumotlarni muallimdan mut’allimga (ta’lim oluvchiga) naql qilishni bildiradi.Ta’lim sharhlash,ochiqlash,yaqinlashtirish,hujjatlash,dalil keltirish,tarbiya berish va nasihat qilish kabi ishlardan iboratdir.Ta’lim berish bilan ta’lim olish bir-biriga chambarchas bog‘liqdir.Birisiz ikkinkinchesi bo‘lmaydi.⁹⁹

Bolalar o‘zlarini o‘rab turgan hamma narsani sezgir qabul qiladilar va ular juda ko‘p narsaga erishadilar. Odamlarga mehribon bo‘lish uchun avvalambor, boshqalarni tushunishni, hamdardlik ko‘rsatishni, xatolaringizni halol tan olishni, mehnatsevar bo‘lishni, atrofdagi tabiatning go‘zalligidan

hayratda qolishni va unga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganish kerak. Kelajakdagi jamiyatda insonning barcha axloqiy fazilatlarini sanab o‘tish qiyin, lekin asosiysi, bu fazilatlar bugungi kunda qo‘yilishi kerak va biz, kattalar uchun, xotirjamligimiz va bolalarcha hayajon o‘rtasida uyg‘unlikni topishimiz, farzandlarimiz nigohidagi ishonch va o‘zaro tushunish uchqunlari so‘nmasinligi uchun ham muhim.¹⁰⁰

Axloqiy toifalarga xushmuomalalik, halollik, kabi falsafiy tushunchalar kiradi. Axloqiy kategoriyalar universal va deyarli barcha jamiyatlarga xosdir. Ushbu

toifalarga muvofiq yashaydigan odam axloqiy hisoblanadi. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiylari va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning

yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g‘oyalar, qarashlar va e‘tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmati, uning baxtli bo‘lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch.¹⁰¹

Boshlang‘ich sinflarda axloqiy tarbiya berishning ahamiyati juda katta, chunki aynan bu yoshda bolalar o‘zlarining axloqiy qoidalari, qadriyatları va to‘g‘ri xulq-atvorini shakllantira boshlaydilar. Bu davrda axloqiy tarbiya nafaqat bolalarning

99 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «Ijtimoiy odoblar » T.2024

100 Boltayeva N «BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AXLOQI TARBIYALASHDA MILLIY URFODATDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI» T

101 Kubayeva Y «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish» T.

shaxsiy rivojlanishiga, balki ular jamiyatga qanday qarashlari va qanday munosabatda bo'lishlariga ham ta'sir qiladi.

Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axloqiy qadriyatlarni o'rgatish ularning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ular o'zlarini va boshqalarni hurmat qilishni,adolatni, halollikni va do'stlikni o'rganadilar. Bu esa ularning kelajakdagi shaxsiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, axloqiy tarbiya bolalar orasida o'zaro hurmat, hamjihatlik, yordam va jamoada ishlashni rivojlantiradi. Ular boshqa insonlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni, bir-birini tushunishni va yordam berishni o'rganadilar.

Uchinchidan, bolalarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatish ularning to'g'ri qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ular kelajakda mas'uliyatli va bilimli fuqarolar bo'lib yetishishiga olib keladi.

To'rtinchidan, jamiyatda tinchlikni saqlash va jamiyatning barqarorligini ta'minlashda axloqiy tarbiyaning ahamiyati katta. Axloqiy qadriyatlarni o'rganish bolalarda shaxsiy va jamoaviy manfaatlarni birlashtirishga yordam beradi, bu esa jamiyatda o'zaro hurmat va tartibni ta'minlaydi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiya berishning ahamiyati nafaqat bolalarning o'zлari uchun, balki butun jamiyat uchun juda muhimdir. O'qituvchilar bu jarayonda muhim rol o'ynaydilar, chunki ular nafaqat bilim beradilar, balki bolalarga to'g'ri axloqiy qadriyatlarni o'rgatadilar.

Axloqiy qadriyatlarning bolalar ongiga singdirilishi ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bolalik davrida o'rganilgan axloqiy qadriyatlarni, bolalar hayotini boshqarishning asosiy mezonlariga aylanadi. Yaxshi axloqiy tamoyillar bolalar ongida mustahkam o'rganilsa, ular nafaqat shaxsiy hayotlarida, balki jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida ham ijobiy natijalarga erishadilar.

Axloqiy qadriyatlarni bolalarda nafaqat to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi, balki ularning jamiyatdagi o'rnnini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. O'zaro hurmat, halollik, do'stlik va adolat kabi qadriyatlarni bolalar o'z hayotida qo'llay olishlari, kelajakda ular uchun barqaror munosabatlar, mustahkam do'stliklar va o'zaro ishonchni yaratadi. Bu qadriyatlarni ularning ichki dunyosini shakllantirib, kelajakdagi har qanday vaziyatda mantiqiy va adolatli qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.

Shuningdek, axloqiy qadriyatlarning bolalar ongiga singdirilishi, ularning ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bolalar o'zaro hurmat, sabr-toqat va o'zaro yordam asosida ijtimoiy aloqalarini rivojlantiradilar. Ijtimoiy hayotda axloqiy qadriyatlarni o'rgangan bolalar jamiyatda tinchlikni saqlashga, o'zaro kelishuv va hamjihatlikni ta'minlashga qodir bo'ladi. Ular nafaqat o'z manfaatlarini, balki jamiyat manfaatlarini ham hisobga olib, to'g'ri qarorlar qabul qilishadi. Shu sababli, axloqiy qadriyatlarni bolalar ongiga singdirish, ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat bolalarning o'zlariga, balki butun jamiyatga foyda keltiradi, chunki axloqiy qadriyatlarni jamiyatda tinchlik, barqarorlik va o'zaro hurmatni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlar bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga, ularning jamiyatdagi o'rnini topishiga, ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Maktabda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar, uchrashuvlar va turli to'garaklar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik va adolat kabi qadriyatlarni asosida tarbiyalaydi. Bu jarayonda o'qituvchilarning tutgan o'rni beqiyosdir. Biz, bolajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning vazifasi ham nafaqat bilim berish, balki har bir o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashishdan iboratdir. O'qituvchilar bolalarga nafaqat darslikdagi ma'lumotlarni, balki hayotiy qadriyatlarni, to'g'ri yo'lni ko'rsatadilar. Ular o'z shaxsiy namunasi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'ladilar, mehribonlik, hurmat va odob-axloq qoidalarini o'zlarini orqali namoyish etadilar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'qituvchilar har bir bolaning qiziqishlarini, ehtiyojlarini va individual xususiyatlarini inobatga oladilar. Bu esa har bir o'quvchining o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishiga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar orqali bolalarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlanadi.

Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda axloqiy tarbiya berish juda muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh davrining o'ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlari mavjud bo'lgani uchun, tarbiyaviy ishlar ham bolalarning qobiliyati, tafakkuri va hissiy dunyosiga mos ravishda olib borilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasavvur va his-tuyg‘u orqali ko‘proq ta’sirlanadilar, shuning uchun biz, bolajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning vazifasi ham bolalarga murakkab nasihatlar emas, balki ular tushuna oladigan oddiy va ravshan misollar, ertaklar, hikoyalar orqali axloqiy qadriyatlarni yetkazishdan iborat bo‘ladi. Axloqiy tarbiya berishda bolalar uchun hayotiy vaziyatlardan olingan qiziqarli hikoyalar, rolli o‘yinlar va sahma ko‘rinishlari orqali ta’sir o‘tkazish juda samaralidir. Bolalar faoliyatga qiziqish bilan yondashadilar, shuning uchun ular ishtirok etadigan turli jamoaviy tadbirlar, ijtimoiy loyihamalar va kichik topshiriqlar orqali ham axloqiy tarbiya berish mumkin. Dars jarayonida o‘zaro yordam, do‘slik, rostgo‘ylik kabi qadriyatlarni amaliy ko‘rinishda o‘rgatish, bolalarda bu fazilatlarning ildiz otishiga imkon beradi.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ular bilan doim samimiyligini va tushunarli tilda muloqot qilish, savollar berish, ularning fikrini eshitish va fikr almashish ham axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu tarzda biz har bir o‘quvchining ongiga asta-sekin axloqiy tushunchalarni singdirib, ularni mustaqil va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalay olamiz.

Axloqiy tarbiya nafaqat maktab ichidagi muhitni yaxshilashda, balki jamiyatdagi umumiyligini axloqiy holatni shakllantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Maktabda berilgan axloqiy bilimlar va tarbiyaviy ta’sirlar bolalarning xulq-atvoriga singib, ularning maktabdan tashqaridagi hayotda ham o‘zini ko‘rsatadi. O‘quvchilarda o‘zaro hurmat, to‘g‘rilik, odob va mas’uliyat kabi fazilatlar shakllansa, ular bu qadriyatlarni oilada, ko‘chada, ijtimoiy guruhlarda ham namoyon qila boshlaydilar. Bolalar oilasida, do‘sstar davrasida yoki ko‘cha muhitida qanday munosabatda bo‘lishni maktabda o‘rganadi. Axloqiy tarbiya olgan bola boshqalar bilan muloqotda muloyimlik, mehribonlik va adolat tamoyillariga amal qiladi. Jamiyatdagi axloqiy muhit asosan yosh avlodning tarbiyasi orqali shakllanadi. Agar bolalar kichik yoshdan axloqiy qadriyatlarga asoslangan tarzda ulg‘aytirilsa, kelajakda jamiyatda adolat, to‘g‘rilik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik kabi ijobiy fazilatlar ustun bo‘ladi.

Bola tarbiyasidagi asosiy masalalar ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirish hisoblanadi. Bola ongidagi bo‘shliqlarni milliy qadriyatlarni, bunyodkor g‘oyalari, yuksak ma‘naviyat va Vatanga muhabbat tuyg‘ulari bilan to‘ldirish lozim. Bu albatta, oiladagi tarbiya jarayoniga bog‘liq. Oiladagi tarbiya orqali bolaga ma‘lum bir siyosiy-g‘oyaviy dunyoqarash, axloqiy me‘yorlar va xulq

na‘munalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Shunday ekan,farzand tarbiyalayotgan ota-onan har bir harakati, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida oljanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatdan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shunday ekani bolaning atrofidagi yaqinlari o‘z odatlari bilan o‘zlarini sezmagan holda ularning tarbiyasiga ta‘sir qiladilar. Bu masala bolalarning o‘qituvchilariga ham taalluqlidir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlarining ilk o‘qituvchilariga, albattataqlid qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z o‘qituvchilarining yurish-turishiga, harakatlariga, gap so‘zlariga, hattoki imo-ishoralariga ham taqlid qiladilar. Bu esa har bir o‘qituvchidan o‘quvchilari bilan munosabatga kirishayotgan paytlarida har bir harakatlariga xushyor va e‘tiborli bo‘lishlarini talab qiladi. O‘qituvchilar har doim to‘g‘ri va aniq ma‘lumot berishga, rost so‘zlashga, yolg‘on ishlatmasliklariga, o‘quvchilar ishonchini yo‘qotmasliklariga juda e‘tiborli bo‘lishlari lozim. Shundagina o‘qituvchilar o‘quvchilari ishonchiga kira oladilar. Bu esa o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya berishda juda ko‘p qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o‘rnini beqiyosdir. Ajdodlarimizdan qolgan urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni bolalarga o‘zlarini tilida sodda va ravon qilib tushuntirishimiz va ongiga singdirishimiz lozim.¹⁰²

Xulosa qilib aytganda, maktabda axloqiy tarbiya berish bolalarning shaxs sifatida yetuk shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bolalik davrida singdirilgan qadriyatlar hayot davomida insonning xulq-atvori, jamiyatdagi munosabati va o‘z o‘rnini belgilab beradi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda har bir o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, ularni mustaqil fikrashga,adolat va mehr-oqibatga asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rgatish lozim.Maktabda o‘rganilgan axloqiy me’yorlar bolalarning oilada, ko‘chada va keng jamiyatda o‘zini tutishiga ijobjiy ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining bilim va tajribasi bilan bolalar ongiga insonparvarlik, vatanparvarlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni singdirishga harakat qilishi kerak. Axloqiy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi kelajak avlodning ma’naviy barkamolligiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.Shunday ekan, tarbiya masalasiga doimo mas’uliyat bilan qarash, bolalarga nafaqat bilim berish,

102 Usmonova N «BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MA‘NAVIV-AXLOQIV XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH» 2022

balki ularni ma'naviy boy insonlar sifatida voyaga yetkazish har bir pedagogning muhim vazifasi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «Ijtimoiy odoblar » T.2024

2.Boltayeva N. «BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI AXLOQI TARBIYALASHDA MILLIY URFODATDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI» T

3.Kubayeva Y. «Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish» T

4.Usmonova N. «BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MA'NAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH» 2022